



TURISTIK RESURLARNI BOSHQARISH VA TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Soxibova Muslimaxon

Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti

ORCID: 0009-0003-6868-1770

zaynutdinovamuslimakhon@gmail.com

Annotatsiya. Turizm jahon iqtisodiyotining yuqori daromadli va tez o'sib borayotgan sektorlaridan biri. Iqtisodiy sektor nafaqat mamlakatlar, balki ayrim mintaqalarning iqtisodiyotida salmoqli o'rinni egallab borishi, undagi boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish masalalarini yuzaga chiqardi. Turizmning asosiy xususiyati, ishlab chiqarishdan farqli o'laroq, resurslarni samarali boshqarish natijasida ularning tugab ketishini oldini olishdadir. Ushbu maqolada turistik resurslarni boshqarish va samarali boshqaruvni takomillashtirish mexanizmlarini tashkil etishda xorij tajribasi o'rganildi, tahlil qilindi, uning asosiy omillari aniqlandi, hamda xorij tajribasini O'zbekistonda qo'llash doirasida amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: turizm, turistik resurslar, boshqaruv, turist, turistik oqim, boshqaruv modeli, barqaror turizm, barqaror rivojlanish konsepsiyasi.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ УПРАВЛЕНИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ

Сохибова Муслимахон

*Научно-исследовательский
институт развития туризма*

Аннотация. Туризм является одной из наиболее прибыльных и быстрорастущих отраслей мировой экономики. Его значительная роль не только в экономике отдельных стран, но и в развитии регионов в целом делает актуальными вопросы совершенствования процессов управления в данной сфере. Основная особенность туризма, в отличие от производства, заключается в предотвращении истощения ресурсов за счет их эффективного управления. В данной статье изучен зарубежный опыт управления туристическими ресурсами и совершенствования механизмов эффективного управления, проведен его анализ, определены ключевые факторы, а также разработаны практические предложения и рекомендации по применению зарубежного опыта в Узбекистане.

Ключевые слова: туризм, туристические ресурсы, управление, турист, туристический поток, модель управления, устойчивый туризм, концепция устойчивого развития.

FOREIGN EXPERIENCE IN MANAGEMENT AND IMPROVEMENT OF TOURIST RESOURCES

Sokhibova Muslimakhon
Tourism Development Institute

Abstract. *Tourism is one of the most profitable and rapidly growing sectors of the global economy. Its significant role not only in the economies of individual countries but also in the development of regions as a whole makes the improvement of management processes in this field highly relevant. The key characteristic of tourism, unlike production, is the prevention of resource depletion through effective management. This article examines international experience in managing tourism resources and enhancing mechanisms for efficient management, analyzes key factors, and provides practical recommendations for applying foreign experience in Uzbekistan.*

Keywords: *tourism, tourism resources, management, tourist, tourist flow, management model, sustainable tourism, sustainable development concept.*

Kirish.

Bugungi kunga kelib turizm jahon iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mazkur sektor ko'p qirrali bo'lib, turli mamlakatlar iqtisodiyoti, madaniyati, atrof-muhit va jamiyatiga turlicha ta'sir o'tkazadi. Turizm global miqyosda ish bilan ta'minlashning muhim manbayi bo'lib, bevosita va bilvosita yangi ish o'rinlarini yaratadi. Sayyohlarning turistik destinatsiyalarda sarflagan xarajatlari orqali valyuta tushumlarini ko'paytiradi, shu orqali milliy YaIM ga hissa qo'shadi. Turizmni qo'llab-quvvatlash uchun mamlakatda aeroportlar, yo'llar, mehmonxonalar, restoranlar va madaniy obyektlarga sarmoya kiritiladi. Mazkur rivojlanish nafaqat turistlar, balki mahalliy aholining umumiy hayot sifatini oshiradi.

Bugungi kunda turizm nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va xabardorlikni oshirish bo'yicha katta vazifani bajarib kelmoqda. Bunda birinchi navbatda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror Rivojlanish Konsepsiyasiga asoslangan "barqaror turizm" loyihalari muhim rol o'ynaydi. Barqaror turizm tabiiy resurslar, ekotizimlar va biologic xilma-xilliklarga ta'sirni ekologik toza amaliyotlar va qoidalar orqali kamaytirishga erishmoqda.

Turizm resurslari sayyohlarni jalb qilish va mamlakatning turizm sektorini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu resurslar turizmning jozibadorligi va rivojlanishiga qo'shadigan tabiiy, madaniy, tarixiy hamda rekreatsion obyektlarning keng doirasini o'z ichiga oladi. Ularni samarali boshqarish mamlakatda turizmdan daromadni orttirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, madaniy almashinuv, merosni saqlash, tabiatni muhofaza qilish imkoniyatini yaratadi.

Turizm resurslarni samarali boshqarish amaliyoti turizmdan maksimal foyda olish va uning atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish uchun muhimdir. Samarali menejment, eng avvalo, strategik rejalashtirish, barqaror amaliyotlar, manfaatdor tomonlarning hamkorligi hamda samarali monitoringni o'z ichiga oladi. Resurslarni samarali boshqarishni tashkil etish uchun, avvallambor, mazkur sohada yetakchilik qilayotgan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish lozim. Aynan shu sababli ushbu mavzu dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Turizm butun jahon miqyosida kengayishda davom etar ekan, turistik manzillar tabiiy, madaniy va infratuzilmaviy resurslarning samarali boshqaruvida unumli foydalanish, saqlash, restovratsiya va konservatsiya qilish, barqaror turizm strategiyalariga integratsiyalashuvi kabi muammolarga duch kelmoqda. Ushbu qiyinchiliklar qatorida ilmiy adabiyotda boshqaruv amaliyotlari va ularning turizm resurslarini samarali boshqarish ta'sirini har tomonlama baholash bo'yicha bo'shliq saqlanib qolmoqda.

Prebensen, Vitterso, Dahl (2013) individual turizm resurslarining turistik tajribadagi qiymatini baholash va turistik resurslarni qo'shimcha qiymat qo'shuvchi element sifatida tahlil qilgan. Lee va Han (2002) kontingent baholash usulidan foydalanish orqali milliy bog'lar turistik resurslaridan foydalanish va saqlash qiymatlarini baholash usullarini ishlab chiqqan. Zuo, Chen, Pan, Law (2021) Xitoyda sport turizmi resurslariga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilgan.

Goeldner va Ritchie (2007) o'z tadqiqotlarida turistik resurslarni "turizmning asosiy qurilish bloklari" deya ta'riflagan. Fennell (2006) esa resurslarni "ma'lum bir joyga tashrif buyuruvchilarni jalb qiladigan tabiiy yoki madaniy atributlar" deya tavsiflagan.

Tuxliyev, Hayitboyev, Safarov (2012) turizm sohasining rivojlanishida turizm resurslarining ahamiyatini ochib berishga harakat qilgan. Davurbaevich (2024) Forish tumanining tarixiy-etnografik turizm resurslariga urg'u bergan.

Tadqiqotlar bo'lsa-da, turizm resurslari menejmentiga oid masalalar xali to'laligicha yoritib berilmagan. Ushbu maqola aynan turistik resurslar boshqaruvida xorij tajribasini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotning asosiy maqsadi turizm saanoati rivojlangan mamlakatlarning turizm resurslari menejmentidagi asosiy tendensiyalarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur mavzu doirasidagi tadqiqotlar tizimli yondashuvni talab qiladi. Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan turistik resurslarning joriy boshqaruv strategiyalari, xalqaro tajriba va strategiyalarning samaradorligi tadqiq qilindi va xorij tajribasini O'zbekistonda qo'llash bo'yicha tavsiyalar berildi. Mavjud tadqiqotlar asosida adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi turistik resurslarni boshqarish va takomillashtirishda xorij tajribasini aniqlash va baholash bo'lib, ushbu maqsadga erishish va tadqiqotning to'liqligini ta'minlash uchun turli xil ma'lumot manbalaridan foydalanildi, masalan, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, jumladan Jahon sayyohlik tashkilotining har yili e'lon qilinadigan nashrlari, hamda bir qator mustaqil tadqiqot tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar jamlandi.

Yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun quyidagi tahliliy vositalar qo'llaniladi:

- boshqa davlatlar bilan qiyosiy tahlil: O'zbekiston tajribasini turizm resurslarini boshqarishning innovatsion usullarini muvaffaqiyatli joriy etgan boshqa mamlakatlar bilan solishtirish.

- turizm jihatdan yetakchi mamlakatlarning resurslar boshqaruvida qo'llayotgan strategiyalarini aniqlash.


- turizm bozorida resurslar boshqaruvidagi zamonaviy tendensiyalarni aniqlash.

Bu usul va vositalar turizm sohasida turizm resurslarini boshqarish bo'yicha har tomonlama tushunchaga ega bo'lish va O'zbekistonda ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

XXI asrga kelib turim kuchli iqtisodiy drayver va madaniy almashinuv platformasi sifatida tan olindi. Turizm nafaqat iqtisodiy o'sish, balki atrof-muhit va madaniy merosni muhofaza qilish kabi rollarni bajarib keladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda turizm resurslarning barqaror boshqaruviga alohida e'tibor berilmoqda.

Turizmning rivojlanib borishi davomida turli davrlarda turistik resurslarni boshqarish muayyan jamiyat urf-odat va qadriyatlari, iqtisodiy ustuvorliklar, texnologik taraqqiyotining o'zgarib borishi ta'sirida rivojlandi. Turistik resurslarning boshqaruvi shakllanish davrlarini quyidagicha tasniflash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Turistik resurslar boshqaruvinin shakllanish bosqichlari

Turistik resurslar boshqaruvi shakllanishining ilk bosqichi turizm paydo bo'lganidan boshlab sanoat inqilobigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi (Sava, 2016). Ushbu davrda sayohatchilar uchun infratuzilma yaxshi shakllanmagan va xavfsizlik muammolari mavjud bo'lgan.

Ikkinchi davr sanoat inqilobidan boshlab XX asr boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Mazkur vaqt oralig'ida turizm industriya sifatida shakllana boshladi, transport sohasidagi taraqqiyot (temir yo'llar va paroxodlarning paydo bo'lishi) sayohatni o'rta sinf qatlami uchun qulay bo'lishiga olib keldi (Thimothy, 2007). Bundan tashqari, tadbirkorlar turistik resurslardan foyda olish maqsadida o'zaro hamkorlikda ishlashni boshladi, bu esa mehmonxona, kurort va ekskursiyalarning rivojlanishiga olib keldi. Ta'kidlash joizki, bu davrda turistik resurslar boshqaruvida asosiy e'tibor rivojlantirishga qaratildi, natijada atrof-muhit zararlandi.

Uchinchi bosqich XX asrning o'rtalaridan XX asr oxirigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Qayd etish kerakki, XX asr nafaqat turizm balki butun jahon iqtisodiyotida global o'zgarishlarni olib kirdi. Bu davrda bo'lib o'tgan ikki jahon urushi vaqtincha barcha sa'y-harakatlarning ijtimoiy hayot va iqtisodiyotni tiklashga qaratildi. Ikkinchi jahon urushidan keyin turizm farovonlik va bo'sh vaqt ortishi tufayli rivojlanib bordi, hamda turizmning atrof-muhitga ta'siri to'g'risida omma orasida xabardorlik kuchaydi. Hukumatlar va xalqaro tashkilotlar turistik faoliyatni boshqarish va tabiiy-madaniy resurslarni muhofaza qilish uchun tartibga solish bilan bir qatorda hududlarni rejalashtirish ishlarini amalga oshirishni boshladi.

So'nggi bosqich, boshqacha qilib aytganda zamonaviy bosqich, XX asr oxiridan boshlab to bugunga qadar bo'lgan vaqt oralig'ini o'z ichiga oladi. Bu vaqt mobaynida turizm jahon iqtisodiyotining yuqori daromadli sektorlaridan biriga aylandi. 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan Barqaror Rivojlanish Maqsadlari qabul qilinishi natijasida Barqaror turizm paradigmasi vujudga keldi. Barqaror turizm tushunchasi tabiiy muhitni saqlovchi va mahalliy hamjamiyatlarga foyda keltiruvchi mas'uliyatli turim amaliyoti asosida quriladi. Bundan tashqari, turistik resurslarning boshqaruvida integratsiyalashgan boshqaruv yondashuvlari ishlab chiqildi. Boshqaruv iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni qamrab oladigan kompleks yondashuvlarga asoslanadi. Turizmdan tushayotgan tushumning ortishi, sayyohlarning yangi destinatsiyalarga ehtiyoji mahalliy hamjamiyatlarni resurslar boshqaruvida qarorlar qabul qilish va manfaatlarni taqsimlashga jalb etdi. Albatta, mazkur

davrda texnologik inqilob natijasida iqtisodiyotning barcha sektorlari, xususan, turistik resurslar boshqaruviga raqamli platformalar va innovatsion texnologiyalarning kirib kelganligini alohida ta'kidlash lozim.

Turizmning rivojlanib borishi, jahon iqtisodiyotida salmorli ulush egallashi turistik resurslarni samarali boshqarish, jarayonni tartibga solishga qiziqishni oshirib yubordi. Har qanday mamlakat turistik destinatsiya sifatida rivojlanish strategiyasini tanlar ekan, avvalambor, mavjud resurslarni aniqlashi va ularni boshqarish mexanizmlarini joriy qilishi lozim.

Bugungi kunda butun dunyoda qancha turistik resurslarni borligini aniqlashning imkoniyati mavjud emas. Chunki turistik resurslar turmahsulot ishlab chiqarish va sotishda ishtirok etuvchi barcha elementlarni qamrab oladi. Bundan tashqari, ayrim resurslar turizmsiz ham faoliyat olib bora oladi, ammo turizm ushbu resurslarsiz mavjud bo'la olmaydi.

Birgina umumiy joylashtirish vositalari sanoati 2023-yilda 8,1 % o'sish qayd etdi va 1,27 trillion AQSh dollariga yetdi (Spinoza, 2024). 2023-yil yakuniga ko'ra butun dunyoda 700 mingdan ortiq mehmonxona va joylashtirish vositalari mavjud, ulardagi xona fondi kamida 17,5 millionni tashkil etadi. Umumiy ovqatlanish shaxobchalarining umumiy sonini aniqlash qiyinchilik uyg'otadi, ammo manbalarda qayd etilishicha 2023-yil holatiga ko'ra butun dunyoda 15 milliondan ortiq restoran va kafelar faoliyat yuritadi (Hunt, 2023). Birgina AQSh da ovqatlanish shaxobchalari soni 794 mingdan ortiq. Butun dunyoda faoliyat olib boradigan turistik agentliklar, korxonalar va firmalar soni 2023-yilda 553 mingga yetdi (Statista, 2024).

Bulardan tashqari har bir mintaqa va mamlakatda joylashgan tabiiy, madaniy-ma'rifiy, tarixiy turistik resurslar mavjud. Bularning barchasini samarali boshqarish mamlakatning turizm salohiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Turistik resurslarni boshqarish haqida gap ketar ekan, avvalambor, bu masalada yutuqqa erishgan mamlakatlarning tajribasiga yuzlanish lozim. Butunjahon Sayyohlik tashkiloti 2023-yilda eng ko'p sayyohlarni qabul qilgan 10 ta mamlakat ro'yxatini e'lon qildi (1-jadval).

1-jadval

2023-yilda eng ko'p xalqaro turistlarni qabul qilgan mamlakatlar ro'yxati

(www.unwto.org., n.d.)

Reyting	Mamlakat
1	Fransiya
2	Ispaniya
3	AQSh
4	Italiya
5	Turkiya
6	Meksika
7	Buyuk Britaniya
8	Germaniya
9	Gretsiya
10	Avstriya

Ushbu reytingda Fransiya 100 million tashrif bilan dunyoning eng ko'p tashrif buyuriladigan manzili sifatida o'rin egalladi. Ikkinchi o'rinda 85 million sayyoh bilan Ispaniya, uchinchi AQSh 66 million, Italiya 57 million Turkiya esa 55 million xalqaro turistlar bilan beshinchi o'rinni egalladi. E'tiborlisi ushbu o'n mamlakatdan aksariyati Yevropa qit'asida joylashgan.


Bundan tashqari Jahon Iqtisodiy Forumi tomonidan 2024-yilda turizm va sayohat bo'yicha dunyodagi eng yaxshi turistik manzillar reytingi tuzildi. Reyting keng doiradagi mezonlar, xususan, infratuzilma, tabiiy resurslar, barqarorlik, ishchi kuchi hamda raqobatbardosh narxlar orqali baholash natijasida ishlab chiqildi (2-jadval).

Jahon Iqtisodiy Forumi tomonidan 2024-yil uchun turizm va sayohat bo'yicha dunyodagi eng yaxshi turistik manzillar reytingi (Edmond, 2024)

Reyting	Mamlakat	Natija
1	AQSh	5,24
2	Ispaniya	5,18
3	Yaponiya	5,09
4	Fransiya	5,07
5	Avstraliya	5,00
6	Germaniya	5,00
7	Buyuk Britaniya	4,96
8	Xitoy	4,94
9	Italiya	4,90
10	Shveysariya	4,81

Ushbu tadqiqotda turistik resurslarni boshqarish va takomillashtirishda xalqaro tajribani tadqiq qilish uchun yuqoridagi mamlakatlardan quyidagilar tanlab olindi: Fransiya, Turkiya, AQSh va Xitoy.


Ma'lumki, Fransiya butun dunyo sayyohlari uchun eng mashhur turistik manzil hisoblanadi. Mamlakatning turizm va sayohat bozori qariyb 20,03 milliard AQSh dollarini tashkil qiladi (Piva, 2023). Fransiya tashruf buyurgan sayyohlar undagi shaharlar, sohillar, qishloqlarni tomosha qilish, fransuz oshxonasidan bahramand bo'lishni istashadi. 2-rasmda 2023-yilda Fransiya eng ko'p tashrif buyurilgan madaniy va dam olish maskanlari berilgan.



2-rasm. 2023-yilda Fransiya eng ko'p tashrif buyurilgan madaniy va dam olish maskanlari (million kishi)

Manba: www.statista.com ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Ko'rinib turganiday, Fransiya sayyohlarga turli xil turlarni taklif qilish imkoniyatiga ega. Buning uchun unda yetarlicha salohiyat va tusistik resurslar mavjud. Aynan turistik resurslarni samarali boshqara olish salohiyati tufaydi Fransiya yillar davomida xalqaro turistlar eng ko'p tashrif buyuradigan manzil sifatidagi nomini saqlab qolmoqda. 3-rasmda 2010-2023-yillar mobaynida Fransiya amalga oshirilgan xalqaro tashriflar soni berilgan.



3-rasm. 2010-2021-yillar kesimida Fransiya amalga oshirilgan xalqaro tashriflar soni (mln. kishi)

Manba: www.unwto.org ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2010-2015-yillar oralig'ida Fransiya tashrif buyurgan sayyohlar soni oshib borgan bo'lsa-da, 2015-yil noyabr Parijda hamda 2016-yilning iyul oyida Nitsa shahridagi terrorchilik harakati oqibatida sayyohlar soni 2015-yilga nisbatan 2,2 % ga tushganligini ko'rishimiz mumkin. Biroq, 2017-yilda ko'rsatkich o'sdi va 2019-yilda eng yuqori ko'rsatkich – 90,9 millionni qayd etdi. Mutaxassislar mamlakatga tashrif buyuradigan xalqaro turistlar soni 2020-yilda 91 million, 2021-yilda 91,2 million, 2022-yilda esa 93,5 millionga yetishini prognoz qilishgan edi. Ammo pandemiya va cheklovlar sabab ko'rsatkich 2 barobarga qisqardi. Shunga qaramay, 2023-yil yakunida Fransiya nafaqat pandemiyagacha bo'lgan holatini tikladi, balki yuqori o'sish sur'atlariga ham erishdi.

Fransiyadagi turistik resurslar madaniy merosni avaylash, tashrif buyuruvchi sayyohlarda yaxshi taassurot qoldiring, barqaror turizmni rivojlantirishga qaratilgan milliy, mintaqaviy va mahalliy strategiyalarning kombinatsiyasi orqali boshqariladi (Aldebert, 2011). Fransiyaning turistik resurslar boshqaruv modelini quyidagicha ifodalash mumkin (4-rasm).


Madaniy va tadbirlarni boshqarish deganda, Fransiya yil davomida o'tqiziladigan tadbir va festivallar, tarix, madaniyat, an'analar bilan bog'liq xordiqni nazorat qilish tushuniladi. Bularning barchasi madaniy merosni saqlash, mahalliy an'analarni targ'ib qilish va tashrif buyuruvchilarni jalb qilishga qaratiladi.

Milliy darajadagi turistik resurslar boshqaruvi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Turizm vazirligi. Fransiya Turizm vazirligi milliy turizm siyosati va faoliyatini muvofiqlashtirishda markaziy rol o'ynaydi. U turizmni rivojlantirish va boshqarishda yaxlit yondashuvni ta'minlash uchun boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.

2. Turizmni rivojlantirish agentliklari. Atout France (Turizmni rivojlantirish milliy agentligi) kabi agentliklar fransuz turizmini xalqaro miqyosda targ'ib qilish, turizm bozori tadqiqotlarini o'tqizish va turiz, biznesini qo'llab-quvvatlash kabi vazifalarni bajaradi.

Mintaqaviy va mahalliy boshqaruv mintaqaviy turizm kengashlari, mahalliy hokimiyat organlari va milliy agentliklar darajasidagi boshqaruvni o'z ichiga oladi. Mintaqaviy turizm kengashlari har bir mintaqada turizmni rivojlantirish, turistik mahsulotlarni ishlab chiqish va mahalliy manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish uchun mas'ul kengashi hisoblanadi.



4-rasm. Fransiyaning turistik resurslarni boshqarish modeli (Vasylchuk, 2020)

Mahalliy hokimiyat organlari mahalliy darajada turizmni boshqarishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular turistik infratuzilma rivojlanishini nazorat qiladi, tashrif buyuruvchilar oqimini boshqaradi va turistik manfaatlarni mahalliy hamjamiyat manfaatlari bilan muvozanatlash siyosatini amalga oshiradi.


Barqaror turizm amaliyotlari resurslar boshqaruvida ekoturizm tashabbuslari va sifat yorlig'ini targ'ib qilishni nazarda tutadi. Fransiya atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirish va tabiiy resurslarni saqlash uchun ekoturizm va barqaror turizm amaliyotlari: yashil turar joylar, ekologik toza transport imkoniyatlarini targ'ib qiladi. Bundan tashqari, yuqori standartlarni ta'minlash va tashrif buyuruvchilarning qoniqishini oshirish uchun turar joy, restoranlar va sayyohlik xizmatlari uchun turli xil sifat yorliqlash tizimi joriy etilgan.

Resurslarni samarali boshqarishda hamkorlik va manfaatdor tomonlarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda davlat organlari, xususiyl sektor manfaatdor tomonlari (mehmonxonalar, turoperatorlar va boshqalar) va mahalliy hamjamiyatlarning hamkorligi ta'minlanadi. Ushbu hamkorlik turizmdan olinadigan foyda adolatli va barqaror taqsimlanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, Fransiya turizm rivojlanishining mahalliy ehtiyojlar va ustuvorliklarga mos kelishini ta'minlash uchun turizmni rejalashtirish va qarorlar qabul qilish jarayonlarida mahalliy hamjamiyatlar ishtirok etadi.

Turkiyada mehmondo'stlik sanoati yaxshi rivojlangan. Mamlakat dunyoning turli burchaklaridan sayyohlarni o'zining boy tarixi va madaniyati, shuningdek, O'rta yer dengizi iqlimi bilan jalb qiladi. 2023-yilda Turkiya yalpi ichki mahsulotiga turizmning umumiy hissasi 1,7 trillion lirani tashkil etdi. Bundan tashqari, turizmning bandlikka qo'shgan hissasi pandemiyagacha bo'lgan davrni tikladi va 2023-yil yakuniga qadar sayyohlik sektori mamlakatda 3 milliondan ortiq ish o'rnini yaratdi (cycles, T. text provides general information S. assumes no liability for the information given being complete or correct D. to varying update and Text, S.C.D.M. up-to-Date D.T.R. in the (n.d.).

5-rasmda Turkiyaga 2010-2023-yillar kesimida tashrif buyurgan sayyohlar soni keltirilgan. Unga ko'ra, 2010-2015-yillar oralig'ida mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlar soni yildan yilga o'sib borgan, ammo 2016-yilda sayyohlar oqimi 2015-yilga nisbatan 30 % ga qisqargan. Bunga sabab o'sha vaqtda bo'lib o'tgan terroristik hujumlar va siyosiy tang vaziyat

edi. Biroq vaqt o'tishi va siyosiy vaziyatda barqarorlik kuzatilishi bilan turizm yana o'zini tiklay bordi, natijada 2018-yilda mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 39,5 million kishini tashkil etdi. Turizm ko'rsatkichidagi navbatdagi keskin vaziyat 2020-yilga to'g'ri keladi, bu davrda pandemiya cheklovlari sayyohlar oqimida aks etdi. 2021-2022-yillarda turizm sektori tiklanib bordi, 2023-yil yakuniga kelib tiklandi va o'sishni qayd etdi.



5-rasm. Turkiyaga 2010-2023-yillar kesimida tashrif buyurgan sayyohlar soni (million kishi)

Manba: www.statista.com ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Turkiyada turistik resurslarni boshqarishning alohida o'ziga xos jihatlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

1. Turizm siyosati va rejalashtirish. Turkiyada sayyohlikni barqaror rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan aniq belgilangan milliy turizm siyosati mavjud. Bunda Turkiyaning Madaniyat va turizm vazirligi nafaqat madaniy va tabiiy boyliklarni asrab-avaylash, balki turizmni rivojlantirish bo'yicha siyosiy va strategik muvofiqlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

2. Infratuzilmani takomillashtirish. Turkiya turistik infratuzilma va resurslar, xususan, joylashtirish vositalari (mehmonxona va hostellar), dam olish maskanlari va kurortlar, transport tarmoqlari (aeroport, vokzal va yo'llar) va sayyohlik obyektlariga katta miqdorda investitsiya kiritadi. Bu esa o'z navbatida xizmatlar sifatini yaxshilash orqali sayohatdan taassurotni yaxshilashga sabab bo'ladi.

3. Madaniyat va merosni muhofaza qilish. Turkiya mamlakatning mintaqalari bo'ylab joylashgan tarixiy obyektlarni UNESCO ning Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritish va shu orqali saqlashga alohida ahamiyat beradi. Resurslarni boshqarish strategiyalariga atrof-muhitni muhofaza qilish bandini albatta kiritadi.

4. Ekologik barqarorlik. Yuqorida ta'kidlanganiday, Turkiyada barqarir turizm amaliyotiga tobora katta ustuvorlik berilmoqda. Bunda milliy bog'lar va qirg'oqbo'yi mintaqalar, tabiiy hududlarda ekologik toza turar joylar, chiqindilarni saqlash, qayta ishlash va boshqarish tashabbuslari va biologik xilma-xillikni saqlashni targ'ib qilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.


5. Turizmni targ'ib qilish va marketing. Mamlakatning xalqaro marketing kampaniyalari, sayyohlik agentliklari bilan hamkorlik, xalqaro turistik yarmarkalarda ishtirok etish va raqamli marketing strategiyalari orqali o'zining turistik takliflarini faol ravishda targ'ib qiladi.

6. Inqirozlarni boshqarish. Turkiya siyosiy beqarorlik yoki tabiiy ofatlar kabi qaltis sharoitlarda turizmni boshqarish tajribasiga ega. Inqirozni boshqarishning samarali

strategiyalari sayyohlar bilan aloqa, xavfsizlik choralari va ko'ngilsizlillarni minimallashtirish, hamda tiklanish rejalarini o'z ichiga oladi.

Tahlil qilinadigan keyingi mamlakat Amerika Qo'shma Shtatlaridir. AQSh mehmondo'stlik sanoati har yili millionlab xalqaro va mahalliy turistlarga xizmat ko'rsatadigan yirik iqtisodiy sektorlardan biri hisoblanadi. Mamlakat sayyohlarga turli xildagi turlarni taklif etish salohiyatiga ega. Tabiati xilma-xil, bundan tashqari turli shtatlar turli madaniyatlarni aks ettiradi. Joriy yil yakunida AQSh ning turizm bozori 198,7 milliard dollar daromad keltirishi kutilmoqda (Statista. (n.d.). Xizmatlar bozorida eng katta ulush egasi mehmonxonalar bozori hisoblanadi.

AQSh turistik resurslarga boy va ularni quyidagicha tavsiflash mumkin (6-rasm).




6-rasm. AQShning turistik resurslari klassifikatsiyasi

Manba: <https://www.visittheusa.com/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

AQSh milliy bog'lar, sohil bo'yi va tog'larda joylashgan kurortlar, tarixiy diqqatga sazovor joylar, o'rmon va cho'l hududlari, mahalliy oshxona, oziq-ovqat va vino, madaniy va musiqa festivallari (Mardi Gras, Coachella), sport tadbirlari (Superbowl, NBA final), turli xil tematik parklar (Walt Disney World Resort, Universal Studios) kabi xilma-xillikdagi resurslarga ega. Ushbu resurslarni boshqarishda mamlakat bir qator strategik boshqaruv usullaridan foydalanadi (7-rasm).

So'nggi yillarda Xitoy Osiyo mintaqasidagi xalqaro sayyohlar orasidagi eng mashhur yo'nalishga aylandi. Mamlakat o'zining boy tarixi, madaniy diqqatga sazovor manzillari, zamonaviy shaharlari va turli xil landshaftlari sababli turistlar oqimi bo'yicha doimiy ravishda yuqori o'rinlarni egallab keladi. Xitoyning turizm sektori mamlakat iqtisodiyoti, madaniy almashinuv va xalqaro munosabatlarda xal qiluvchi rol o'ynaydi hamda dinamik va ko'p qirrali soha hisoblanadi, shuningdek, turistik resurslar, infratuzilma, iqtisodiy ta'sir va hukumat siyosati kabi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Butun dunyoda post-pandemiya holatida tiklanish jarayoni kuzatildi, ammo Xitoy uchun bu davr qiyinroq kechdi. Xitoyning turizm sektori notekis tiklandi, ichki turizm tez va ishonchli tiklangan bo'lsa-da, chiqish turizmi 2023-yilda biroz va qisman o'sdi (Economist Intelligence Unit (2024). Xitoyning Milliy Statistika Byurosi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda 489 millionga yaqin sayohatlar amalga oshirilib, turizmdan tushgan tushum qariyb 679 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan (National Bureau of Statistics of China, 2023). 2023-yilda mahalliy sayyohga to'g'ri keladigan xarajatlar pandemiyadan oldingi darajadan oshib ketdi va besh yillik eng yuqori ko'rsatkichga yetdi.



7-rasm. Amerika Qo'shma Shtatlarida turizm resurslarini samarali boshqarishning usullari

Manba: <https://www.ustravel.org/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Xitoyning sayyohlik resurslari juda xilma-xil bo'lib, qadimiy tarix, tabiiy go'zallik, zamonaviylik va boy madaniy tajribalarni o'zida mujassam etadi. Turistik resurslar boshqaruvida madaniy meros va atrof-muhitni muhofaza qilish, infratuzilmani rivojlantirish, turizmni rejalashtirish va taribga solish, madaniy va atrof muhitga turizmning ta'sirini baholash, marketing va reklama, inqirozni boshqarish kabi asosiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. E'tiborlisi, Xitoy tashrif buyuruvchilarga barqarorlik prinsiplariga amal qilish, mahalliy madaniyatga nisbatan hurmatni targ'ib qilishni ham amalga oshiradi (Anon, 2023).

Xitoyda turizm resurslarini boshqarish mamlakatning boy madaniy va tabiiy merosini saqlab qolish bilan bir qatorda turizmning barqaror o'sishini ta'minlash uchun tabiatni muhofaza qilish, infratuzilmani rivojlantirish, turizm siyosatini tartibga solish, jamoatchilik ishtiroki va tashrif buyuruvchilarni o'qitishni birlashtiradigan yaxlit yondashuvni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy manfaatlar hamda atrof-muhit va madaniyatni muhofaza qilish o'rtasidagi muvozanatni saqlagan holda, muammolarni hal qilish va rivojlanayotgan turizm talablariga moslashish uchun doimiy sa'y-harakatlar nafaqat Xitoy, balki olgan barcha turistik destinatsiyalar uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar.

Xulosa sifatida shuni qayd etish joizki, O'zbekistonda turizm resurslarini boshqarishni takomillashtirish boshqa mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan bir qator strategik yondashuv hamda ilg'or tajribalarni o'z ichiga olishi lozim.

Jumladan:

1. Amerika Qo'shma Shtatlari:

– Turistik manzillarni boshqarish tashilotlariga (DMOs) asos solish: mamlakatda turizmni rejalashtirish, marketing va rivojlantirishni muvofiqlashtirish uchun turli darajadagi (mahalliy, mintaqaviy) mustahkam tashkilotlar faoliyatini yo'lga qo'yish;

– Davlat-xususiy sherikchilik (PPP): turizm infratuzilmasi va xizmatlarni takomillashtirish uchun davlat idoralari, xususiy sektor va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash.

2. Turkiya:

– Madaniy va tarixiy resurslarni muhofaza qilish: Turkiya kabi boy tarixiy va madaniy merosdan unumli foydalanish, hamda UNESCO ning Jahon merosi obyektlaridan joy olgan madaniy meros obyektlari sonini oshirish;

– Turistik manzillar marketing: turli xil turmahsulotlarni samarali targ'ib qilish.

3. Xitoy:

– Infratuzilmaga urg'u berish: foydalanish imkoniyatini yaxshilash uchun transport, jumladan, tezyurar temir yo'l aloqalari, aeroportlar va avtomobil yo'llariga keng sarmoya kiritish;

– Hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash: turizmni rivojlantirish bo'yicha hukumatning kuchli tashabbuslari va siyosati, jumladan, qishloq va kam tashrif buyuradigan hududlarda turizmni rivojlantirish uchun rag'batlantirish.

4. Fransiya:

– Barqaror turizm amaliyotlari: merosni saqlash, mahalliy hamjamiyatni jalb qilish va ekologik tashabbuslarda barqaror turizm amaliyotlariga e'tibor qaratish;

– Tadbirlar va festivallar: yirik xalqaro tadbirlarga mezbonlik qilish.

Ushbu amaliy tavsiyalar turistik destinatsiyalarni boshqarish, madaniy targ'ibot, infratuzilmani rivojlantirish va barqarorlik bo'yicha muvaffaqiyatli tajribalarni o'rganish orqali O'zbekiston o'zining turizm sektorini mustahkamlashi va noyob turizm resurslaridan samarali foydalanishi mumkin.

Adabiyotlar/Umepamypa/Reference:

Aldebert, Bénédicte, Rani J. Dang, and Christian Longhi. (2011) "Innovation in the tourism industry: The case of Tourism@." *Tourism management* 32.5: 1204-1213.

Anon, (2023). Eco-tourism is booming in China — Chinese Tourists Agency. [online] Available at: <https://chinesetouristagency.com/eco-tourism-is-booming-in-china/>.

cycles, T. text provides general information S. assumes no liability for the information given being complete or correct D. to varying update and Text, S.C.D.M. up-to-Date D.T.R. in the (n.d.). Topic: Travel and tourism in Turkey. [online] Statista. Available at: <https://www.statista.com/topics/9676/travel-and-tourism-in-turkey/>.

Davurbaevich, Bababekov Akbar. (2024) Forish tumanining tarixiy-etnografik turizm resurslari va salohiyati. xalqaro konferensiya va jurnallarni sifatli indexlash xizmati 1.1: 100-105.

Duval, David Timothy. (2007) *Tourism and transport: Modes, networks and flows*. Vol. 1. Channel View Publications.

Economist Intelligence Unit (2024). In charts: China's outbound tourism in 2024. [online] Economist Intelligence Unit. Available at: <https://www.eiu.com/n/in-charts-chinas-outbound-tourism-in-2024/>.

Edmond, C. (2024). Here are the top 10 economies for travel and tourism. [online] World Economic Forum. Available at: <https://www.weforum.org/agenda/2024/05/tourism-travel-pandemic-economy/>.

Fennell, David A. (2006) *Tourism ethics*. Vol. 30. Channel View Publications.

Goeldner, Charles R., and JR Brent Ritchie. (2007) *Tourism principles, practices, philosophies*. John Wiley & Sons.

Hunt, G. (2023). Restaurant Industry Statistics — Helplama.com. [online] Helplama.com. Available at: <https://helplama.com/restaurant-industry-statistics>.

Lee, Choong-Ki, and Sang-Yoel Han. (2002) "Estimating the use and preservation values of national parks' tourism resources using a contingent valuation method." *Tourism management* 23.5: 531-540.

National Bureau of Statistics of China (2023). National Bureau of Statistics of China. [online] www.stats.gov.cn. Available at: <https://www.stats.gov.cn/english/>.

Piva, G. (2023). France Tourism Statistics and Analysis. [online] Radical Storage. Available at: <https://travel.radicalstorage.com/france-tourism-statistics/>.

Prebensen, Nina K., Joar Vittersø, and Tove I. Dahl. (2013) "Value co-creation significance of tourist resources." *Annals of tourism Research* 42: 240-261.

Sava, Cipriana, and Gheorghe Pinteala. (2016) "The evolution of tourist activity in the West region correlated with tourist resource management and legislation issues." *Quaestus* 8: 92.

Spinoza, J. (2024). 75+ Hotel Industry Statistics You Shouldn't Ignore in 2024. [online] Zoomshift. Available at: <https://www.zoomshift.com/blog/hotel-industry-statistics>.

Statista. (2024). Number of travel agency businesses worldwide 2024 | Statista. [online] Available at: <https://www.statista.com/statistics/1329559/business-count-travel-agency-services-industry-worldwide>.

Statista. (n.d.). Travel & Tourism — United States | Statista Market Forecast. [online] Available at: <https://www.statista.com/outlook/mmo/travel-tourism/united-states>.

Tuxliyev, I.S., et al. (2012) "Turizm asoslari." O 'quv qo 'llanma. –T.

Vasylichuk, Liudmyla. (2020) "Dynamics and tendencies of development of recreational and tourist resources of France".

www.unwto.org. (n.d.). China recovers its position as top spender in 2023 as Asia and the Pacific reopens to tourism. [online] Available at: <https://www.unwto.org/news/china-recovers-its-position-as-top-spender-in-2023-as-asia-and-the-pacific-reopens-to-tourism>.

Zuo, Yifan, et al. (2021) "Spatial distribution pattern and influencing factors of sports tourism resources in China." *ISPRS International Journal of Geo-Information* 10.7: 428.